

MAGISTRATURA BOSQICHIDA ILMIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sh. U. Abubakirova

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada magistratura ta'lim bosqichi talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish muammosi va magistrantlarning zamonaviy oliy ta'limda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorgarligi tahliliga bag'ishlangan. Magistratura bosqichi talabalarining ilmiy faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlari va amaliy tajribasi tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, ilmiy faoliyat, magistratura, tizim, tajriba, amaliyot, tizimli faoliyat, ilmiy ishlarni tashkil etish, nazariy bilimlar, manbalar, didaktik tamoyillar, tajribalar, texnologiyalar, texnologiyalashtirish, metodika, statistik tahlil.

Аннотация:

Данная статья посвящена анализу проблемы организации научно-исследовательской работы аспирантов и готовности аспирантов к проведению научных исследований в современном высшем образовании. Анализируются и обобщаются теоретические аспекты и практический опыт организации научной деятельности магистрантов.

Ключевые слова: образование, научная деятельность, магистр, система, опыт, практика, систематическая деятельность, организация научной работы, теоретические знания, ресурсы, дидактические принципы, опыт, технологии, технология, методология, статистический анализ.

Annotation:

This article is devoted to the analysis of the problem of organizing scientific-research work of graduate students and the readiness of graduate students to conduct scientific research in modern higher education. The theoretical aspects and practical experience of the organization of the scientific activity of master's degree students are analyzed and summarized.

Key words: education, scientific activity, master's degree, system, experience, practice, systematic activity, organization of scientific work, theoretical knowledge, resources, didactic principles, experiences, technologies, technology, methodology, statistical analysis.

Hozirgi kunda Oliy ta'lim muassasasida ta'lim sohasiga oid tizimli psixologik-pedagogik tadqiqotlar anchagina. Zamonaviy oliy ta'limda tizimli yondashuvni tatbiq etuvchi bunday ilmiy yo'nalishlar nazariy va eksperimental tajribalar, oliy ta'lim faoliyati sifatini boshqarishni o'rganish va oliy ta'lim natijalarini diagnostik tahlil qilish, Oliy ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, uzluksiz kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish kabi masalalar yechimini topib kelmoqda. Hozirgi kunda ilmiy-pedagogik xodimlar va talabalarining ilmiy izlanishlarini olib borish va olingan natijalardan o'quv jarayonlarida foydalanish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bo'lsa, keng ko'lamlari fanlar bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish esa oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Magistratura bosqichi talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari ilmiy-kasbiy tayyorgarlikning muhim qismi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. [1]

Magistrning ilmiy faoliyatini tizim sifatida tahlil qilganda shuni ta'kidlash kerakki, uning ilmiy faoliyati uning o'quv faoliyatining boshqa barcha turlariga ongli ravishda kirib boradi. Oliy ta'limda magistratura ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va boshqarish tizimi magistrning ilmiy-tadqiqot faoliyati sohasida tegishli kasbiy kompetensiyalarni egallashini ta'minlashga qaratilgan. Magistr darajasini olish yuqori darajadagi umumiy madaniy, ilmiy, kasbiy va umumiy kasbiy kompetensiyalarni, shu jumladan nafaqat ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini qayta ishlash usullarini bilishni, balki tadqiqot muammolarini mustaqil ravishda hal qilish uchun turli xil ijtimoiy yo'naltirilgan vakolatlarini ham o'z ichiga oladi. Magistrning ilmiy-tadqiqot ishlarini monitoring qilish, statistik tahlil qilish, uni tashkil etishning mumkin bo'lgan shakllari va olingan natijalarning xilma-xilligi tufayli yanada murakkablashib boradi. Magistrlik tadqiqotining natijalari maxsus (ilmiy maqola, konferensiyadagi ma'ruza, maqola, tezis, tanlovda ishtirok etish va h.k.) yoki umumlashtirilgan (kasbiy kompetensiyalar) bo'lishi mumkin, ular maxsus nazorat va baholash vositalarini talab qiladi. [4,159]

Magistrlik ilmiy-tadqiqot tizimining samaradorligini baholashni rasmiylashtirish ilmiy ish sohasida tegishli tayyorgarlik darajasidagi bitiruvchiga qo'yilgan talablar tufayli ya'ni kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasiga oid yo'naltirilgan mutaxassis modelining vakolatlarini hisobga olgan holda tatbiq etiladi.

Oliy ta'lim muassasasida magistrlik darajasini olish uchun tadqiqot faoliyati sohasida magistr ko'plab muammolarni hal qilishga tayyor bo'lishi kerak, ya'ni o'z sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish, muayyan tadqiqot vazifalarini hal qilishda tadqiqot usullari, zamonaviy ilmiy usullardan majmuasidan foydalanish orqali, shuningdek, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini loyihalash, tashkil etish, joriy etish va baholash va boshqalar shular jumlasidan hisoblanadi. Barcha magistratura dasturlari Oliy ta'lim tizimi davlat ta'lim

standartiga muvofiq yaratilgan va Oliy ta'lim muassasalariga o'zlarining ta'lim salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan va magistrning ilmiy-tadqiqot tayyorgarligining mazmuni va tabiatida mintaqaviy ehtiyojlarni hisobga oladigan o'zgaras va o'zgaruvchan komponentlarni o'z ichiga oladi. Unda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muammoli sohosi haqidagi bilimlar olinadi. Magistrning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash tizimiga ilmiy-tadqiqot amaliyoti malaka oshirish kurslari bilan bir qatorda ham kiritilgan. Amaliyot davomida talabalar ilmiy-metodik ta'minlash va o'quv ishlarini ta'minlash sohasidagi umumiy ilmiy va kasbiy kompetensiyalarni ilmiy rahbar bilan ishlash va o'z shaxsiy amaliy ishini bajarish tajribasini uyg'unlashtirish orqali rivojlantiradilar. Ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish ilmiy faoliyatning muhim bo'g'ini hisoblanadi. [5,86] Magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarning ilmiy faoliyatini yuqorida darajada tashkil etish uchun magistrarga "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani o'qitiladi. Ushbu fan orqali magistrlar ilmiy tadqiqot ishlarida mavzu rejasi ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari, magistratura ilmiy-tadqiqot faoliyatining umumiy tavsifi, magistratura talabalarining o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi kompetensiyalarni diagnostika qilish va rivojlantirishga bag'ishlangan asosiy bo'limlarni o'rganadi va ishlab chiqadi. Magistratura bosqichidagi talabalar o'rtasida tajriba o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki magistraturaga qabul qilingan talabalar bilan o'quv yilining boshidanoq uzviylik ravishda amalga oshirilgan ilmiy faoliyatga oid bo'lgan jarayonlar yaxshi natijalarni ko'rsatdi. Magistratura ilmiy-tadqiqot ishlarining alohida elementlari mazmunini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, magistrantlar tadqiqot maqsadini shakllantirish, tadqiqot usullarini tanlash, tajriba jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini boshqalarga qaraganda yaxshiroq o'zlashtirganlar. Magistrlar o'z natijalarini ilmiy maqola va ma'ruzalar shaklida taqdim etish kabi ish yo'nalishlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. [6,55] Keyingi o'rinlarda fanlarga universitetdagi o'quv ishlarining har xil turlariga munosabatni aniqlash va ushbu turdagi o'quv ishlarining sub'ektiv murakkabligini o'z-o'zini baholash uchun so'rovnoma taklif qilindi. Boshqa turdagi tarbiyaviy ishlar jarayoni magistrlar orasida ijobiy munosabatni va ularda ishtirok etish istagini uyg'otdi. Shu bilan birga, har xil turdagi o'quv ishlarining jozibadorligining reyting nisbati quyidagicha tahlilni ko'rsatdi:

birinchi o'rinda umumiy kasbiy fanlar;

ikkinchi o'rinda har xil turdagi amaliyotlar;

uchinchi o'rinda umumiy ilmiy fanlar,

va oxirgi o'rinda tadqiqot ishlari.

Taqdim etilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har xil turdagi o'quv ishlarining sub'ektiv murakkabligining reyting nisbati quyidagicha:

birinchi o'rinda ilmiy-tadqiqot ishlari,

<https://conferencea.org>

ikkinchi o‘rinda umumiy kasbiy fanlar;
uchinchi o‘rinda umumiy ilmiy fanlar,
hamda oxirgi o‘rinda har xil turdagi amaliyotlar.

Ikki qator eksperimentda olingan natijalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, amaliyot sub’ektlar tomonidan o‘quv ishining istalgan va murakkab bo‘lmagan turi sifatida baholanadi, tadqiqot esa ijobiy munosabatni uyg‘otsa ham, sub’ektiv jihatdan murakkab va qiyin ta’lim turi sifatida qabul qilinadi. Umuman olganda, statistic-tahlil, diagnostik natijalar va tadqiqot ishlari integral tizimning bir qismi sifatida tadqiqot ishlarining turli ko‘nikmalari va mahoratining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. [7,109] Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalari magistrilarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish muammolarini samarali hal qilish tizimli yondashuvni izchil amalga oshirish va magistrilar uchun ilmiy-tadqiqot ishlari tizimini amalga oshirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar majmuasini ishlab chiqish orqali oliy ta’limda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida magistrilar tayyorlash dasturlari o‘qitishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotini tizimli tahlil qilish jarayonida aniqlangan magistrilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari hamda ilmiy ishlarni tashkil etishning aniqlangan psixologik-pedagogik shartlari o‘quv rejalari va ishlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori.
2. F.K.Voros (1975). Democritus’ educational thought, Paedagogica Historica, 15:2, 457-470, DOI: 10.1080/0030923750150206
3. Brickhouse, Thomas C. (2000). The Philosophy of Socrates. Westview Press.
4. Lodge R. C. Platos theory of education. – Routledge, 2014.
5. Алексеенко, В.А. Системный подход к управлению качеством образовательной деятельности вузов России / В. А. Алексеенко. М.: Изд-во Нац. ин-та бизнеса, 2007.
6. Волченко, И.О. Системный подход в управлении учебным процессом: [научное издание] / И. О. Волченко. Мурманск: МГТУ, 2008.
7. Соляников, Ю.В. Обеспечение качества подготовки магистрантов педагогического университета к научно-исследовательской деятельности: Дис. к.п.н: СПб., 2003.